



## **XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI QARORI**

2022 - yil 27 - may

VI-35-67-4-63-K/22

Mirishkor tuman hokimligi

### **Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarni jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022 yil 27 apreldagi 01-22/2/966-sonli topshiriq xatiga asosan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Xalq deputatlari tuman Kengashlari huzurida komissiyalar tuzish va ularning faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 27-apreldagi "Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etishga ko'maklashish to'g'risida" gi 01-22/2-12/966-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya to'g'risidagi na'munaviy nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Z.Mamanazarova tegishli mas'ullar bilan birgalikda:

- bir oy muddatda hududlardan 4 ta (har bir sektordan bittadan) mahalla faoliyatini oila va xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha namunaviy yo'lga qo'yish choralarini amalga oshirish;

- faoliyati namunali yo'lga qo'yilgan mahallalarning ish tajribalarini ommalashtirish yuzasidan mutasaddi idora va tashkilotlar bilan birgalikda joylarda seminar-treninglar o'tkazish;

- Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalar bo'yicha komissiya faoliyatini samarali tashkil etishga hamda ularning jamiyatdagi rolini oshirish bo'yicha manzilli reja ishlab chiqib amaliyotga tadbiiq yetsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari matbuot kotibi (A.Yazdurdiyev) hamda "Mirishkor mashali" gazetasi (G'.Omonov)ga komissiya tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni ommavi axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (T.Ro'ziyeva) zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Sh.Ch.Sanayev**

Xalq deputatlari Mirishkor tuman  
Kengashining  
2022 yil 27 maydagi  
VI-35-67-4-63-K/22-son qaroriga  
1-ilova

## **Mirishkor tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiya to'g'risida**

### **NAMUNAVIY NIZOM**

#### **1-bob Umumiy qoidalar**

1. Mazkur namunaviy nizom Mirishkor tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha komissiyaning (bundan buyon matnda Hududiy komissiya deb yuritiladi) asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari, shuningdek faoliyatini tashkil yetish tartibini belgilaydi.

2. Hududiy komissiya a'zolari o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradilar.

3. Hududiy komissiya o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha Respublika komissiyasi qarorlari, mazkur Nizomga va boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

#### **2-bob. Hududiy komissiyaning asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari**

4. Hududiy komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

Hududda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok yetish;

hududda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, gender tenglik va oilani qo'llab-quvvatlash bo'yicha qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish hamda monitoring qilish;

davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish, mahalliy davlat boshqaruvi organlari hodimlari orasida xotin-qizlarning ulushini oshirish, rahbarlik lavozimlariga joylardagi iqtidorli va faol xotin-qizlar nomzodlarini ilgari surishga ko'maklashish, tavsiyalar berish;

mahalliy shart-sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, xotin-qizlar, oila, gender tenglik masalalari bo'yicha hududiy dasturlar, "yo'l haritalari" ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok yetish;

xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tenglik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini jamoatchilikka yetkazish.

#### 5. Hududiy komissiya quyidagi huquqlarga yega:

Hududdagi davlat organlari va idoralaridan zarur bo'lgan axborotlar, statistika va boshqa materiallarni belgilangan tartibda olish;

xotin-qizlar, oila, gender tenglik masalalari bo'yicha joylarda o'rganishlar, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, tadqiqotlar olib borish maqsadida mutaxassislar hamda yekspertlarni jalb yetgan holda ishchi guruhlar tuzish;

o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, ko'rik-tanlovlar, aksiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

kelib tushgan murojaatlar, ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan masalalar yuzasidan o'rganishlar olib borish, natijalari bo'yicha munosabat bildirish;

o'z faoliyatini, majlislarda muhokama qilinadigan masalalarni yoritish maqsadida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish.

Hududiy komissiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

#### 6. Hududiy komissiya o'z faoliyatini amalga oshirish doirasida quyidagi majburiyatlarga ega:

Qonun hujjatlari hamda mazkur Nizom talablariga rioya etish;

Davlat organlari va idoralaridan olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiylikiga rioya qilish;

Hududiy komissiya o'z zimmasiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham oladi.

### **3-bob. Hududiy komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi**

7. Hududiy komissiyaga tuman hokimi raislik qiladi.

8. Hududiy komissiya raisi:

Faoliyatga umumiy rahbarlik qiladi;

Majlislarni chaqiradi va raislik qiladi;

Ish rejani, majlis bayonnomalari va qarorlarini hamda boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi;

Qarorlar ijrosini nazorat qiladi;

Hududiy komissiya a'zolariga shahardagi mahallalarga zimmasiga yuklatilgan vazifalar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib tegishli yo'nalishlarga biriktiradi;

Hududiy komissiya a'zolari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

Qarorlarni bajarish masalalari yuzasidan mahalliy davlat boshqaruvi organlari, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini-o'zini boshqarish organlari, jamoat tashkilotlar bilan hamkorlik qiladi;

Hududiy komissiyaning samarali faoliyat olib borishi uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

9. Hududiy komissiya raisi o'rnida bo'lmagan taqdirda, uning o'rinbosari vazifasini bajaradi.

10. Hududiy komissiya raisining o'rinbosari:

Rais yo'qligida Hududiy komissiya majlislarida raislik qiladi;

Hududiy komissiya qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

Hududiy komissiyaning samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

11. Hududiy komissiyaning kotibi:

Hududiy komissiyaning faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

Hududiy komissiya majlisi kun tartibiga kiritilgan masalalar bo'yicha barcha barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, hududdagi davlat organlari va idoralaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

Kun tartibiga muvofiq Hududiy komissiya majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

Hududiy komissiyaning tadbirlari o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini Hududiy komissiya raisi bilan kelishadi;

Hududiy komissiya a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni Hududiy komissiya majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

Hududiy komissiya qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va

uning natijalarini Hududiy komissiya majlisida ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

Hududiy komissiya majlislari bayonlarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarning Hududiy komissiya a‘zolari hamda manfaatdor idora va tashkilotlarga yuborilishini ta‘minlaydi;

Hududiy komissiyaning samarali ishlashini ta‘minlash bo‘yicha boshqa choralarni amalga oshiradi.

12. Hududiy komissiya a‘zolari majlislarda ko‘rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o‘z vakolatini boshqalarga o‘tkazish huquqiga ega emas.

Hududiy komissiya a‘zolari majlisda ishtirok yetish imkoni bo‘lmagan hollarda, majlis kun tartibidagi masalalar bo‘yicha o‘z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko‘rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

13. Hududiy komissiya majlisi uning ish rejasiasosida har chorakdakamidabirmartao‘tkaziladi.

Hududiy komissiya raisining tashabbusi, shuningdek hududiy komissiya a‘zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisi chaqirilishi mumkin.

14. Hududiy komissiya majlislariga davlat organlari, xo‘jalik birlashmalari, jamoat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari vakillari taklif etilishi mumkin.

15. Hududiy komissiya majlisi kun tartibining loyihasi Hududiy komissiya raisi va a‘zolarining takliflari asosida Hududiy komissiya kotibi tomonidan shakllantiriladi.

16. Hududiy komissiya majlisi, agar unda Hududiy komissiya a‘zolarining kamida yarmi ishtirok etayotgan bo‘lsa, vakolatli hisoblanadi.

17. Hududiy komissiya qarori majlisda ishtirok etayotgan Hududiy komissiya a‘zolarining oddiy ko‘pchilik ovozi bilan ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi.

18. Hududiy komissiyaning har bir a‘zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo‘yicha o‘zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli.

19. Hududiy komissiya majlisida qabul qilingan qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

20. Hududiy komissiya majlisi bayonnomasi Hududiy komissiya kotibi tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi hamda uch ish kunida Hududiy komissiya a‘zolariga va manfaatdor idora va tashkilotlarga yuboriladi.

21. Hududiy komissiya raislari har chorak yakunida yuqori turuvchi Komissiyaga

o'z faoliyati to'g'risida amalga oshirilgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflardan iborat tahlili y axborot kiritib boradi.

#### **4-bob. Yakunlovchi qoidalar**

22. Hududiy komissiya faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Oila va xotin-qizlar hududiy bo'linmasi (Oila va Xotin-qizlar davlat qo'mitasi) tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

23. Hududiy komissiya faoliyatiga uslubiy jihatdan ko'maklashish, uning faoliyatini muvofiqlashtirib borish Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan ta'minlanadi.

24. Ushbu Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Hududiy komissiya qarori bilan kiritiladi.

Xalq deputatlari Mirishkor tuman  
Kengashining  
2022 yil 27 maydagi  
VI-35-67-4-63-K/22-son qaroriga  
2-ilova

**Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashi huzuridagi Xotin-qizlarning jamiyatdagi  
rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha tuman**

**komissiya tarkibi :**

<b>№</b>	<b>FISH</b>	<b>Komissiya tarkibi</b>
1	SH.Sanayev	Mirishkor tuman hokimi komissiya raisi
2	Z.Mamanazarova	Mirishkor tuman hokimi o'rinbosari - oila va xotin-kizlar bo'limi boshlig'i, komissiya raisi o'rinbosari
3	T.Ro'ziyeva	Xalq deputatlari Mirishkor tuman Kengashi deputati
4	S.Qoraboyev	Mirishkor tuman Adliya bo'limi boshlig'i
5	N.Xomidov	Mirishkor tuman tibbiyot birlashmasi bo'limi boshlig'i o'rinbosari
6	B.Shodiyev	Mirishkor tuman xalq ta'limi bo'limi
7	K.Norchayev	Mirishkor tuman Madaniyat bo'limi boshlig'i
8	M.Azizov	Mirishkor tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazlari rahbari
9	A.Sariqov	Mirishkor tuman Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish bo'limi
10	B.Boborajabov	Mirishkor tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi
11	X.Karamatov	Respublika Ma'naviyat va Ma'rifat markazi Mirishkor tuman bo'linmasi rahbari
12	A.Shukurov	Mirishkor tuman moliya bo'limi mudiri
13	A.Tangriyev	Mirishkor tuman yoshlar ishlari agentligi bo'limi boshlig'i
14	SH.Abdunazarov	AT "Xalk banki" Mirishkor tuman filiali boshliq o'rinbosari
15	S.Xidrnazarova	Tuman FXDYO bo'limi mudiri
16	G'.Omonov	"Mirishkor mash'ali" gazetasi muharriri
17	K.Azizboyev	Mirishkor tuman oila va xotin-qizlar bo'limi bosh mutaxassisi (komissiya mas'ul kotibi)